



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

ACTIVITIES OF OFFICIALS RESPONSIBLE FOR RECEIVING AMBASSADORS IN THE BUKHARA EMIRATE

Abdullayev Akmaljon Hasanboy o'g'li

Lecturer, Department of History of Uzbekistan, Faculty of History, National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ABSTRACT

This article analyzes the activities of officials involved in organizing and conducting ceremonies for receiving foreign ambassadors in the Bukhara Emirate. It examines the duties of the qushbegi, otaliq, devonbegi, parvonachi, shig'ovul, eshikog'aboshi, mirokhur, and other palace officials in welcoming ambassadors, arranging their accommodation, escorting them to the emir, receiving diplomatic documents and gifts, supervising compliance with ceremonial procedures, and seeing the ambassadors off. The article also highlights the role of officials such as the qozikalon, mufti, a'lam, and muftiyaskar in ensuring the religious and legal aspects of the ceremonies. The study demonstrates that the reception of ambassadors was not based on the activities of a single official but relied on the coordinated functioning of interconnected palace, administrative, financial, military, and religious-legal institutions.

Keywords

Bukhara Emirate, ambassador, diplomacy, reception ceremony, palace protocol, shig'ovul, qushbegi, devonbegi, parvonachi, eshikog'aboshi, mirokhur, qozikalon.

BUXORO AMIRLIGIDA ELCHILARNI QABUL QILISH UCHUN MAS'UL BO'LGAN AMALDORLARNING FAOLIYATI

Abdullayev Akmaljon Hasanboy o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Tarix fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrası
o'qituvchisi



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Buxoro amirligida xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlarini tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etgan amaldorlarning faoliyati tahlil etiladi. Elchilarni kutib olish, ularni joylashtirish, amir huzuriga olib kirish, diplomatik hujjatlar va sovg'alarni qabul qilish, marosim tartibiga rioya etilishini nazorat qilish hamda elchilarni kuzatish jarayonlarida qushbegi, otaliq, devonbegi, parvonachi, shig'ovul, eshikog'aboshi, miroxur va boshqa saroy amaldorlarining vazifalari yoritiladi. Shuningdek, marosimning diniy-huquqiy jihatlarini ta'minlashda qozikalon, muftiy, a'lam va muftiyaskar kabi mansabdorlarning o'rni ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida elchilarni qabul qilish marosimi yagona mansabdor faoliyatiga emas, balki o'zaro bog'langan saroy, ma'muriy, moliyaviy, harbiy va diniy-huquqiy institutlar faoliyatiga tayanganligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, elchi, diplomatiya, qabul marosimi, saroy protokoli, shig'ovul, qushbegi, devonbegi, parvonachi, eshikog'aboshi, miroxur, qozikalon.

Buxoro amirligining siyosiy va diplomatik hayotida xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlari muhim o'rin egallagan. Mazkur marosimlar oddiy uchrashuv shaklida emas, balki saroy iyerarxiyasi, davlat boshqaruvi, diniy-huquqiy me'yorlar va diplomatik an'analar uyg'unligida tashkil etilgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo'lgan. Elchilik missiyasining Buxoroga kirib kelishidan boshlab, uning joylashtirilishi, amir huzuriga olib kirilishi, salomlashuv marosimi, maktub va sovg'alarning topshirilishi hamda missiyaning kuzatilishigacha bo'lgan jarayonlarda turli mansabdorlar o'z vakolatlari doirasida faoliyat olib borgan. Manbalarda dastlab devonbegi, qushbegi, shig'ovul, yasovul kabi amaldorlar ushbu jarayonlarga mas'ul bo'lganligi, keyinchalik esa elchilarni qabul qilish bilan bog'liq jarayonlar asosan shig'ovul nazoratiga o'tgani qayd etiladi[13].



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

Buxoro saroyidagi marosimlarning shakllanishi va rivojlanishini tushunishda saroy amaldorlarining ijtimoiy-siyosiy mavqei ham muhim ahamiyatga ega. Marosimlarda amaldorlarning joylashuvi ularning unvoni, martabasi va saroy iyerarxiyasidagi o'rniga muvofiq belgilangan. V.V. Bartold ma'lumotlariga ko'ra, hukmdor taxtining ikki tomonida turli martabadagi dunyoviy va diniy mansabdorlar joylashgan bo'lib, ularning o'zni jamiyatdagi nufuzi bilan belgilanardi. Keyingi davrlarda siyosiy vaziyat va davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar ta'sirida marosim tartiblariga ayrim o'zgarishlar kiritilgan[9].

Buxoro amirligining markaziy boshqaruv tizimida qushbegi eng yuqori mansablardan biri hisoblangan. Qushbegi devonxonasi davlat boshqaruvining muhim markazi bo'lib, uni bevosita qushbegi boshqargan. Shu sababli xorijiy davlatlardan kelgan diplomatik missiyalarni qabul qilishda ham qushbegi muhim tashkiliy va siyosiy vakolatlarga ega bo'lgan.

Qushbегining elchilik missiyalari bilan bog'liq faoliyati, avvalo, diplomatik vakillarning Buxoroga kelishi haqida ma'lumot olish, ularni kutib olish va joylashtirish, elchilik missiyasining maqsadini dastlabki tarzda aniqlash hamda bu haqda amirga axborot yetkazish bilan bog'liq bo'lgan. Ayrim manbalarda elchilarni shahar tashqarisidagi qarorgohlarda, jumladan, Bozorchi qasri atrofida kutib olish va joylashtirish masalalarida qushbегining ishtiroki qayd etiladi.

Otaliq esa amirlik boshqaruvida qadimiy va nufuzli mansablardan biri bo'lib, dastlab shahzodalarni tarbiyalash vazifasi bilan bog'liq bo'lgan. Keyinchalik ushbu lavozim davlat boshqaruvida yuqori martabali mansabga aylangan.

Elchilarni qabul qilish jarayonida otaliqning vazifasi, avvalo, diplomatik missiyani amir huzuriga olib kirish jarayonini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan. U elchilar bilan dastlabki muloqotni olib borib, ularning topshirig'i, olib kelgan maktublari va



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

tuhfalari haqida ma'lumot to'plagan hamda bu ma'lumotlarni amirga yetkazgan. Shu jihatdan otaliq saroy va xorijiy diplomatik vakillar o'rtasidagi vositachi mansabdor sifatida namoyon bo'lgan.

Buxoro amirligi boshqaruv tizimida moliya idorasi muhim o'rin egallagan bo'lib, uni devonbegi boshqargan. Devonbegi davlatning moliyaviy boshqaruvi, xususan, soliq va xazina bilan bog'liq masalalarga mas'ul bo'lgan.

Elchilik qabul marosimlarida devonbegining vazifalari diplomatik missiyalar tomonidan olib kelingan sovg'a va hadyalarni rasmiy qabul qilish bilan bog'langan. Elchilar taqdim etgan mol-mulkning davlat xazinasiga kiritilishi, ayrim hadyalarning bevosita amirga taqdim etilishi, marosim davomida elchilarga beriladigan sarpo va boshqa sovg'alarning moliyaviy jihatdan ta'minlanishi devonbegi faoliyatining muhim yo'nalishlarini tashkil etgan[13].

Shu jihatdan devonbegining faoliyati diplomatik marosimning iqtisodiy va moliyaviy tomonlarini tartibga solishga xizmat qilgan. Demak, elchilik marosimida taqdim etilgan sovg'alar faqat ramziy diplomatik vosita bo'lib qolmay, ularni qabul qilish, qayd etish va tegishli tartibda taqsimlashni talab qilgan davlat mulki sifatida ham qaralgan.

Buxoro amirligi saroy tizimida parvonachi amir farmonlari va yorliqlarini tegishli shaxslarga yetkazish bilan shug'ullangan. Shu sababli uning faoliyati diplomatik hujjatlarni qabul qilish va ularni amirga yetkazish jarayonlari bilan ham bevosita bog'langan. Elchilar olib kelgan nomalar va boshqa yozma hujjatlarning qabul qilinishi, ro'yxatga olinishi, rasmiy tartibda tekshirilishi va hukmdorga taqdim etilishida parvonachi vositachilik qilgan.

Dodxoh esa elchilar tomonidan bildiriladigan arz, talab va murojaatlarni qabul qilishda muhim vositachi bo'lgan. Xorijiy vakillar amirga yetkazmoqchi bo'lgan



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

masalalarini dastlab dodxoh orqali bildirgan. U elchilar murojaatlarini qayd etib, ularni amir huzuriga taqdim qilgan. Ayrim hollarda masalaning dastlabki ko'rib chiqilishi ham dodxoh zimmasiga yuklangan.

Muhrdor inoqning faoliyati esa diplomatik hujjatlarning huquqiy va rasmiy maqomini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan. Amir tomonidan chiqarilgan farmon, yorliq, maktub va diplomatik yozishmalarga muhr bosish, ularning haqiqiylikini tasdiqlash va maxfiylikini saqlash uning asosiy vazifalaridan edi. Xorijiy elchilarga yuboriladigan javob maktublari ham muhrdor inoq tomonidan tasdiqlangan.

Elchilarni saroy hududiga kiritish va marosimning ichki tartibini ta'minlashda eshikog'aboshi alohida o'rin tutgan. Uning asosiy vazifalariga saroyga kirib-chiqayotgan shaxslarni nazorat qilish, amir xavfsizligini ta'minlash va amir huzuriga kirish huquqiga ega shaxslarni tartibga solish kirgan. Elchilik marosimida eshikog'aboshi diplomatik missiya vakillarini saroy darvozasidan majlis o'tkaziladigan joygacha kuzatib borgan, ularning o'tirish tartibini belgilashda ishtirok etgan hamda sovg'alar bilan kirish-chiqish jarayonlarini nazorat qilgan. Shig'ovul, to'qsoba va miroxur bilan hamkorlikda elchilik karvonining saroyga kirish va chiqish tartibini muvofiqlashtirgan[10].

Miroxur esa saroy otxonasini boshqaruvchi amaldor sifatida marosimning tashkiliy tomonlarida ishtirok etgan. U amirning otlarini parvarishlash, marosimlarda foydalaniladigan otlarni tayyorlash va otliq xizmatni tashkil etishga mas'ul bo'lgan.

Elchilarni kutib olishda miroxurning vazifasi, ayniqsa, diplomatik karvonning otliq qismini tartibga solish, otlarni saroy yaqinida belgilangan joylarga joylashtirish va otboqarlar faoliyatini nazorat qilishda namoyon bo'lgan. Abbosqulixonning "Buxoro safarnomasi"da Buxoro Arki darvozasi oldida otlarning mansabiga qarab maxsus joylarga bog'langanligi haqida ma'lumot beriladi.



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

Buxoro amirligida elchilarni qabul qilish marosimlarini tashkil etishda eng muhim mansablardan biri shig'ovullik bo'lgan. Dastlab bir necha amaldor o'rtasida taqsimlangan vazifalar keyinchalik tobora shig'ovul nazoratida jamlangan. Natijada shig'ovul diplomatik missiyanig Buxoroga kelishidan tortib, uning saroydan kuzatilishigacha bo'lgan jarayonning asosiy mutasaddisiga aylangan.

Shig'ovulning vakolati elchilarni joylashtirish, amir huzuriga olib kirish, salomlashuv marosimini tashkil etish va saroydagi protokol talablariga rioya qilinishini nazorat qilishni qamrab olgan. Shuningdek, u xorijiy vakillarning saroy a'yonlari va mahalliy aholi bilan tartibga solinmagan aloqalarini cheklash orqali diplomatik missiyanig xavfsizligi va marosimiy tartibini ta'minlagan.

Abbosqulixonning "Buxoro safarnomasi" va Jozef Vulf qaydlarida shig'ovulning amir huzuridagi salomlashuv marosimini boshqargani haqida ma'lumotlar mavjud. Jozef Vulf qaydlariga ko'ra, elchilar amir huzuriga kirishdan avval shig'ovul rahbarligida belgilangan marosimiy tartibda ta'zim va salomlashuvni amalga oshirgan. Bu ma'lumot shig'ovulning diplomatik etiketa va saroy protokoliga rioya etilishini ta'minlashdagi muhim o'rnini ko'rsatadi[12].

Shig'ovul, bundan tashqari, saroy ichidagi tartibni saqlash, amaldorlar va mehmonlarning joylashuvini belgilash, amir huzurida so'z olish navbatini tartibga solish va marosim paytida zarur bo'lgan hurmat muhitini ta'minlash bilan ham shug'ullangan. Elchilar tomonidan olib kelingan sovg'alar va yorliqlarni qabul qilish jarayonida ham uning tashkiliy nazorati mavjud bo'lgan[13].

Xulosa

Buxoro amirligida xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlari davlat boshqaruvining turli bo'g'inlari faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Mazkur



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

jarayonda har bir mansabdor o'zining davlat tizimidagi vakolatidan kelib chiqib, marosimning muayyan bosqichini ta'minlagan.

Qushbegi diplomatik missiyalarni kutib olish, joylashtirish va ularning siyosiy maqsadlarini dastlabki aniqlashda muhim tashkiliy-siyosiy vazifani bajargan. Otaliq elchilar bilan dastlabki muloqot va ularning topshiriqlarini amirga yetkazishda vositachilik qilgan. Devonbegi elchilar tomonidan keltirilgan sovg'a va hadyalarning moliyaviy jihatdan rasmiylashtirilishi va davlat xazinasiga tegishli qismining nazoratini ta'minlagan. Parvonachi va muhrdor inoq diplomatik hujjatlarning qabul qilinishi, rasmiylashtirilishi va muhrlanishida ishtirok etgan. Eshikog'aboshi saroy ichki tartibi va elchilarning kirib-chiqishini nazorat qilgan bo'lsa, miroxur otlar va otliq marosim qismining tashkiliy ta'minotini amalga oshirgan.

Shu bilan birga, mazkur mansabdorlar orasida shig'ovulning mavqei alohida ajralib turadi. Tadqiq etilgan ma'lumotlarga ko'ra, vaqt o'tishi bilan elchilarni kutib olishdan tortib ularni saroydan kuzatishgacha bo'lgan asosiy marosimiy jarayonlar shig'ovul nazoratida jamlangan. U elchilarni kutib olish, joylashtirish, amir huzuriga olib kirish, salomlashuv va ta'zim tartibini boshqarish, sovg'a va yorliqlar topshirilishini muvofiqlashtirish hamda marosim yakunida elchilik missiyasini kuzatib qo'yish kabi vazifalarni bajargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аббос Кулихон. Бухоро сафарномаси. – Бухоро, 1844.
2. Будрин. Русские в Бухаре в 1820 г. (Записки очевидца) // Справочная книжка Оренбургского края на 1871 год. – Оренбург: Издательство Оренбургского губернского статистического комитета, 1871. – С. 16.
2. Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата. – М.: Издательство восточной литературы, 1958. – С. 12.





**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

3. Мирза-Шемс Бухари. О некоторых событиях в Бухаре, Хоканде и Кашгаре. – СПб., 1861. – С. 6–7.
4. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий (Фойдали тарих). – Т.: Академия, 2001. – Б. 24–26.
5. Надеяев В.М., Насилов Д.М., Тенишев Э.Р., Щербак А.М. ва бошқ. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 66.
6. Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре // Советское востоковедение. – М., 1948. – Т. V. – С. 140, 148.
7. Тухтаметов Т.Г. Россия и Бухарский эмират в начале XX века. – Душанбе: Ирфон, 1977. – С. 17.
8. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1843. – С. 185–188.
9. Шодиев Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши. – Т.: ТДЮИ, 2010. – Б. 18.
10. Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. – Т.: Фан, 1996. – Б. 28.
11. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти / Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. – Т.: Академия, 2000. – Б. 199.
12. Wolff Joseph. Narrative of a Mission to Bokhara, in the Years 1843–1845. – London, 1845. – P. 189.
13. Xolikulov A.B. Buxoro amirligining tashqi siyosiy aloqalari (XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr o'rtalari) Monografiya / Mas'ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2023. – 44 b.